



TIQ X M M I
MILLIY TADOIQOT UNIVERSITETI



FAN:

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA

MAVZU
03

QISHLOQ XO`JALIK
EKINLARINING SUG`ORISH
REJIMI



Matyakubov Baxtiyar
Shamuratovich



Irrigatsiya va melioratsiya
kafedrasi professori, q.x.f.d.



Asosiy adabiyotlar ro`yxati

- 1.Xamidov M.X., Mamataliev A.B. “Irrigasiya va melioratsiya”//Toshkent. TIQXMMI.2019.-210 bet.
- 2.Xamidov M.X., Shukurlaev X.I., Mamataliev A.B. “Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi” //Toshkent. Sharq. 2008. - 408 bet.
- 3.Xamidov M.X., Shukurlaev X.I., Lapasov X.O. “Qishloq xo‘jalik gidrotexnik melioratsiyasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma // Toshkent. 2014. -233 bet.
- 4.Raximbaev F.M., Xamidov M.X. “Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasi” // Tashkent. Mehnat. 1996. - 328 bet.
- 5.Kostyakov A.N. “Osnovi melioratsiya” // M.: Sel'xozgiz, 1960 g.-604 str.
- 6.Markov Ye. “Sel'skoxozyaystvennie gidrotexnicheskie meliorasii” // M.: Kolos,1981 g.-376 s.

Qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati

1. Yerxov N.S., Il'in N.I., Misenev V.S. “Melioratsiya zemel” // M.: Agropromizdat, 1991. - 319 str.
2. Irrigatsiya uzbekistana. I-IV tom.

Internet materiallari

3. <http://tiiame.uz/uz/page/ilmiy-jurnallar> (Irrigatsiya va melioratsiya jurnalı).
- 4 http://qxjurnal.uz/load/jurnal_2017/agro_ilm_2017 (Agro ilm jurnalı).
- 5 https://elibrary.ru/title_about.asp?id=54940 (Jurnal Voprosi melioratsiya).

**Mavzu: “Qishloq xo`jalik ekinlarining
sug`orish rejimi”**

“Qishloq xo`jalik ekinlarining sug`orish rejimi” mavzusidagi ma`ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O`qituvchi	Talabalar
I. Kirish bosqichi (10 daqiqa).	<p>1.1. Mavzuning nomi, maqsadi, rejalashtirilgan o`quv mashg`ulot natijalari va uni o`tkazish rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Mashg`ulot ma`ruza, tushuntirish va namoyish shaklida o`tkazilishini va baholash mezonlarini ma`lum qiladi</p> <p>1.3 Fanni o`rganish uchun adabiyotlar ruyxati bilan tanishtiradi.</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar.
II. Asosiy bosqich (55 daqiqa).	<p>2.1.Mavzu bo`yicha ma`ruza va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishtiradi.</p> <p>2.2. Ma`ruzani yorituvchi slaydlarni Power pointda namoyish va sharhlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy bilimlarni bayon qiladi.</p> <p>2.3.Jalb qiluvchi savollar beradi; mavzuning har bir qismi bo`yicha xulosalar qiladi; eng asosiy tushunchalarga e`tibor qaratadi.</p>	Tinglaydilar, yozib boradilar, savollarga javob beradilar.
III. Yakuniy bosqich (15 daqiqa).	<p>3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiylar qiladi, yakun yasaydi, savollarga javob beradi.</p> <p>3.2.Talabalarga mavzu bo`yicha nazorat savollarini e`lon qiladi.</p>	Tinglaydilar, savol beradilar, savollarga javob beradilar va uyga vazifani yozib oladilar.

Ma`ruza rejasi

1. Qishloq xo`jalik ekinlarining sug`orish rejimi.
2. Qishloq xo`jaligi ekinlarining sug`orish rejimiga ta`sir etuvchi omillar:

Tabiiy iqlim sharoitlari;

Tuproq - grunt sharoiti;

Gidrogeologik sharoitlar;

Iqtisodiy-xo`jalik sharoitlari;

Sug`orish usullari va sug`orish texnikasi.

3. Tuproqlarning suv-fizikaviy xossalari.
4. Tuproqlarning nam sig`imi.
5. Sug`orish me`yori va uni aniqlashning qanday usullari
6. Qishloq xo`jaligi ekinlarining sug`orish vaqtি.
7. Qishloq xo`jaligi ekinlarining umumiy suv iste`moli.

Qishloq xo`jalik
ekinlarining sug`orish
rejimi





Рис. 54. График гидромодуля (В.В. Колпаков, И.П. Сухарев, 1981):

а — неукомплектованный; б — укомплектованный;

1 — хлопчатник; 2 — люцерна; 3 — кукуруза на зерно; 4 — расход водонисточника


Qishloq xo`jalik ekinlarining sug`orish rejimi nima?

- Tuproqning aktiv qatlamida muayyan tabiiy va agrotexnikaviy sharoitda belgilangan ekin maydonini maqbul nam va oziq rejimlari bilan ta`minlaydigan sug`orish me`yorlari, sug`orish muddatlari va sug`orish soni yigindisi sug`orish rejimi deb ataladi.
- Belgilangan sug`orish rejimi quyidagi shartlarga:
 - a) Muayyan agrotexnikaviy talabarga asosan, o`simgilik rivojlanishining har qaysi fazasida uning suvga bo`lgan talabiga;
 - b) Tuproqning suv, ozik moddalar, tuz va issiklik rejimlarini tartibga solib turishiga;
 - v) Sug`oriladigan yerlarning botqoqlanishiga, sho`rlanishiga hamda tuproq eroziyasiga yo`l qo`ymaslikka rivoya qilish kerak.




Месяцы и декады	Апрель			Май			Июнь			Июль		
	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III
Средн. день полива		20		7	22		15					


Sug'orish tartibi grafigi




a. Grains spike⁻¹ of wheat




b. 1000 grains weight (g) of wheat




c. Grain yield (kg ha⁻¹) of wheat



d. Grain yield (kg ha⁻¹) of barley



e. Seed yield (kg ha⁻¹) of fababean



f. Grain yield (kg ha⁻¹) of rapeseed

- G`alla ekinlarining suvni eng ko`p iste`mol qilishi boshoq chiqarish (to`planish) fazasiga to`g`ri keladi.
- G`o`za gullah fazasida umumiyl suvning 55-65% ini iste`mol qiladi.
- Tuproqda suv bilan birga tuproqqa unumdorlik beradigan elementlar (kislород, vodorod, uglerod, kaliy, kalsiy, magniy, temir, azot, fosfor, oltingugurtlar) xam bo`lishi kerak.
- G`o`za ekinining tanasida 67-77 % suvdan iborat. Ekinlar oziq moddalarni o`zlashtirishi va xosil tugishi uchun ulardagi suv va oziq moddalar ma`lum nisbatda bo`lishi shart.



Sug'orish tartibi grafigi

- Turli ekinlar tuproq namligini turlicha talab qiladi.

Masalan:

- Texnika ekinlari, ildizmevalar va kartoshka tuproqda to`liq nam sig`imining 60-70 %;
- Ko`p yillik o`tlar, dukkaklilar va gallasimonlar 70-80%;
- Tovar ahamiyatiga ega donli ekinlar 40-50%;
- Boshqa donli ekinlar 50-60 % nam bo`lishni talab qiladi.


➤ Sug`oriladigan territoriyadagi tabiiy, xo`jalik va iqtisodiy sharoitlar kompleksi ham ekinlarning sug`orish rejimiga ta`sir etadi.

Qishloq xo`jaligi ekinlarining sug`orish rejimiga ta`sir etuvchi omillar



- Iqlim sharoiti: havo temperaturasi, yog`in miqdori va uning yil fasllariga taqsimlanishi; havo namligi, bug`lanish tezligi; shamol va uning kuchi, esish yo`nalishi, takrorlanishi;




Iqlim sharoiti



- Tuproq - grunt sharoiti: mexanikaviy tarkibi, tuzilishi, suv - fizikaviy xossalari, tuproqning sho`rlanish darajasi;



- Gidrogeologik sharoitlar: er osti suvlarining chukurligi va minerallashganlik darajasi, ularning yil fasllariga qarab uzgarishi , sizot suvlarning oqib ketish va oqib kelish sharoiti, ya`ni gidrogeologik zonalarga bo`linish sharoiti;



- Iqtisodiy-xo`jalik sharoitlari: ekinlarni parvarish qilish uchun qo`llanilayotgan agrotexnika, tuproq unumdorligi, ekinlarning xosildorligi va shu kabilar;




➤ Ekinlarning navi va rivojlanish fazalari;




G`o`zani rivojlanish fazalari

➤ Ekinlarning navi va rivojlanish fazalari;

Germination Leaf initiation Seedling	Vegetative devpt Branching Juvenility	Inflorescence devpt Budding Floral initiation	Inflorescence	Fertilisation Seed set	Ripening
					
Emergence Establishment	Rosette Spikelet initiation	Tillering Booting	Flowering Heading	Grain set	Grain filling Fruit development




➤ Sug`orish usullari, sug`orish texnikasi;



➤ Sug`orish usullari, sug`orish texnikasi;

Irrigation Methods

Sprinkler Irrigation



Drip Irrigation



Surge Irrigation



Flood Irrigation




➤ Ekinlarning xosildorligи va suv iste`moli koeffitsientи.



- Ekinlarning hosildorligi va suv iste`moli koeffitsienti.





➤ *Ekinlarning
suv iste `moli*





Тупроқнинг асосий морфологик белгилари



Tuproqning mexanikaviy tarkibi


- Xajmiy og`irligi katta (1450 kg/m^3) bo`lgan og`ir tuproqlar tarkibida gil tuproq (40-66%) va undan ko`p xamda serg`ovakligi va ko`p nam sigdirishi jihatidan boshqa (o`rtacha va yengil) tuproqlardan farq qiladi.
- Yengil tuproqlarning nam sig`imi oz va suv o`tkazuvchanligi ko`p bo`ladi.
- Shuning uchun engil tuproqlarga ekilgan ekinlar kichik sug`orish normalari bilan tez-tez sug`oriladi.





Tuproqlarning suv-fizikaviy xossalari

- **Tuproqlarning suv-fizikaviy xossalari** tuproqning suvgaga bo`lgan nisbatini ko`rsatadi.
- Tuproqning asosiy suv-fizikaviy xossalari:
 - Nam sig`imi;
 - Suv o`tkazuvchanligi;
 - Suv ko`tarish kuchi (kapillyarlar orqali suvning ko`tarilishi);
 - Bug`lantirish xususiyatlaridan iborat.




Tuproqlarning suv-fizikaviy xosslari


(A.N.Kostyakov ma`lumotlaridan)

Tuproqlar	Tuproqdagи g`ovaklilik xajmiga nisbatan, %	Tuproqdagи kapallyar, xajmiga nisbatan, %	Dalaning eng ko`p nam sig`imi, xajmiga nisbatan, %	Maksimal molekulyar nam sig`imi, xajmiga nisbatan, %
qumli tuproq	30-40	12-18	12-20	4-8
qumloq tuproq	40-45	18-23	20-30	8-12
qumoq tuproq	45-50	23-27	30-35	12-18
soz tuproq	50-55	27-30	35-45	18-30
og`ir soz tuproq	55-65	30-35	45-55	30-40

Soil sample



Soil model




Tuproqlarning suv-fizikaviy xossalari

- Tuproq tarkibida gil tuproq naqadar ko`p bo`lsa, uning mexanik tarkibi shu qadar og`ir va u shu qadar serg`ovak ham kapillyar nam sig`imi shu qadar yuqori xamda o`simpliklar iste`mol qila oladigan nam protsenti shu qadar ko`p bo`ladi.

Tuproqlarning nam sig`imi

- Tuproqda ma`lum miqdordagi namni o`zida ushlab turish xususiyati.
- **Nam sig`imi quyidagi turlarga bo`linadi:**
 - *to`la nam sig`imi* - tuproqning hamma zarralari orasining suv bilan to`lganligi.
 - *dalaning eng ko`p (yoki potentsial) nam sig`imi*-tuproqning tabiiy sharoitda eng ko`p miqdordagi namni qui qatlamlarga o`tkazmay, o`zida saqlab tura olish xususiyati.
 - *kapillyar nam sig`imi*-tuproqning kapillyari oralariga anchagina nam sigdirish va bu namni aynan shu joyda saqlab tura olish xoossasi.
 - *maksimal molekulyar nam sig`imi* -molekulyar tortilish tufayli tuproq zarralarida saqlanadigan suv.



Tuproqlarning nam sig`imi

➤ O`simliklar bu namni o`zlashtira olmaydi, shu sababli nam sig`imi shu darajagacha pasayganda ular quriy boshlaydi. Tuproqdagi suv havo va issiklik rejimi zarur darajada saqlansa, tuproqdagi mikrobiologik protsesslar normal boradi, oziq moddalar o`simliklar iste`mol qila oladigan xolda bo`ladi.

Qishloq xo`jaligi ekinlarining sug`orish me`yori va uni aniqlash usuli

Sug`orish me`yori: 1 ga ekinni bir marotaba sug`orish uchun zurur bo`lgan suv miqdori:

$$M = (W_{chdns} - W_{xaq}) \cdot 100 \cdot \delta \cdot h + k$$

bu erda: W_{chdns} - tuproqning chegaraviy dala nam sig`imi, %.

W_{xaq} - tuproqning haqiqiy namligi, %.



δ - tuproqning hajm og`irligi, g/sm³.

h – hisobiy (faol qatlam qalinligi, m.

faol qatlam: h sabzavotlar = 0,3 - 0,6 m.

h paxta = 0,6 - 1,0 m.

h mev.daraxt = 1,0 - 1,5 m.



Qishloq xo`jaligi ekinlarining sug`orish vaqtini aniqlash:

1. Q.x ekinlarning fiziologik xolatiga qarab:

a) barglarning surish kuchiga qarab:

gullahgacha 11-12 atm;

gullah - xosil tugash davrida 13-14 atm;

pishish davrida 15-16 atm.

b) kletkalardagi sharbatning kontsentratsiyasiga qarab:

gullahgacha - 8 %;

gullah xosil tugish davrida - 10 %;

pishish davrida -2-14 %.

2. Tuproq namligiga qarab (70-70-60% PPV). Tuproqning mexanik tarkibi va ekin turi hisobga olinadi.

3. O`simlikning tashqi ko`rinishiga qarab.

Qishloq xo`jaligi ekinlarining umumiyl suv iste`moli va uni aniqlash usullari

- Qurilayotgan sug`orish maydoniga ma`lum vaqt ichida keladigan va sarf bo`ladigan suv hajmi nisbati va u erdag'i suv zahiralarining o`zgarishiga shu maydonning suv balansi deb ataladi.
- Sug`oriladigan maydonning asosiy suv sarfi - bu bug`lanish va tarnspiratsiyadir.


$$E = U + tr$$

bu erda: $E \rightarrow$ meterologik sharoitlarga bog`liq;
 $U \rightarrow$ sug`oriladigan maydonning ekin bilan to`liq egallanganligi;
 $tr \rightarrow$ ekin turiga bog`liq.

Water requirement of different crops

Crop	Water requirement (mm)	Crop	Water requirement (mm)
Rice	1200	Tomato	600 - 800
Wheat	450 - 650	Potato	500 - 700
Sorghum	450 - 650	Pea	350 - 500
Maize	500 - 800	Onion	350 - 550
Sugarcane	1500 - 2500	Chillies	400 - 600
Sugarbeet	550 - 750	Cabbage	380 - 500
Groundnut	500 - 700	Banana	1200 - 2200
Cotton	700 - 1300	Citrus	900 - 1200
Soybean	450 - 700	Grapes	700 - 1200
Tobacco	400 - 600	Mango	1000 - 1200
Beans	300 - 500	Turmeric	1200 - 1400

Irrigation Water Requirements for Different Crops in the Okanagan in 2006



Qishloq xo`jaligi ekinlarining umumiyligini iste`molini aniqlash usullari

Kostyakov A.N.

$$E = U \cdot K \quad m^3/ga$$

bu erda: U-rejalarashtirilayotgan xosildorlik, ts/ga.

K - suv iste`moli koeffitsiyenti, m^3/ga - 1 ts xosil olish uchun zarur bo`lgan suv miqdori.

Alpatev A.M.

$$E = k \cdot \sum D \quad mm$$

bu erda: $\sum D$ - vegetatsiya davrida havodagi yetishmagan namliklar yig`indisi, mm.

k - bioklimatik koeffitsiyent (0.6 - 0.7)

Qishloq xo`jaligi ekinlarining umumiyl suv iste`molini aniqlash usullari

G.K.Lgov

$$E = k \cdot \sum t \text{ m}^3/\text{ga}$$

bu erda: $\sum t$ - vegetatsiya davrida o`rtacha kunlik
xaroratlarning yig`indisi, $^{\circ}\text{C}$
 k - biofizik koefitsiyent, q/x ekinlari uchun
o`rtacha $k=1,88$

Mavzu bo`yicha nazorat savollari

1. Tuproqning mexanikaviy tarkibiga ko`ra klassifikatsiyasini tushuntirib bering.
2. Tuproqning mexanikaviy tarkibi qanday bo`ladi, qanday usulda aniqlanadi.
3. Tuproqlarning suv-fizikaviy xossalari deganda nima tushuniladi.
4. Tuproqlarning nam sig`imi nima?
5. Qishloq xo`jaligi ekinlarining sug`orish me`yori va uni aniqlashning qanday usullar mavjud. Tushuntiring?
6. Qishloq xo`jaligi ekinlarining sug`orish vaqtini qanday aniqlanadi?
7. Qishloq xo`jaligi ekinlarining umumiy suv iste`moli va uni qay usulda aniqlash mumkin. Misollar keltiring.

Mavzu bo`yicha nazorat savollari

1. Qishloq xo`jalik ekinlarining sug`orish rejimi nima?
2. Qishlok xo`jaligi ekinlarining sug`orish rejimiga qanday omillar ta`sir qiladi?
3. Tabiiy iqlim sharoitlari qay darajada ekinlarni o`sishi va rivojlanishida o`z ta`sirini o`tkazadi?
4. Tuproq va gidrogeologik sharoitlar deganda nimani tushunasiz?
5. Iqtisodiy-xo`jalik sharoitlari nima?
6. Sug`orish usullari va sug`orish texnikasi deganda nimalar tushuniladi?
7. Tuproqlarning suv-fizikaviy xossalari deganda nima tushuniladi.
8. Tuproqlarning nam sig`imi nima?
9. Sug`orish me`yori va uni aniqlashning qanday usullar mavjud. Tushuntiring?
10. Qishloq xo`jaligi ekinlarining sug`orish vaqtি qanday aniqlanadi?
11. Qishloq xo`jaligi ekinlarining umumiyl suv iste`moli va uni qay usulda aniqlash mumkin.



E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!



Matyakubov Baxtiyar
Shamuratovich



Irrigatsiya va melioratsiya
kafedrasi professori